

MUSTAQILLIK VA DIN.

*DTPI Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 2- bosqich talabasi
Xolmuminova Sevinch
Xilmatullayeva Aziza*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Diniy tashkilotlar faoliyatidagi muhim o'zgarishlar diniy qadriyatlarning tiklanishi, diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi, batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat taraqqiyoti, vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik, aqidaparaslik, etiqod va madaniyat, siyosiy mustaqillik, diniy omil, mazmun va axamiyat.

Kirish. Xalqlarimiz tafakkurida yuksak axloqiy ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirish va mustaxkamlash orqali ularni yovuz kuchlarga qarshi kurashga safarbar etish zarur.

SH.M.Mirziyoyev.

Din (arabcha: دين – „e'tiqod“, „ishonch“, „itoat“) jamoat tomonidan shifrlangan qadimiy yozuvarlar, mifologiya va rituallarga qat'iy amal qilingan holda bajariluvchi harakatlar to'plamidir^[1]; shuningdek, shaxsiy e'tiqod hamda mistik kechinmalardan iborat bo'lishi ham mumkin. „Din“ atamasi ham jamoat e'tiqodiga oid shaxsiy amaliyotlarni, ham guruh tomonidan bajariluvchi rituallarga qo'llanadi. „Din“ so'zini ba'zi hollarda „e'tiqod“ ma'nosida ham qo'llashadi, lekin bu doim o'rinli emas, zero e'tiqod shaxsiy ishonchdan iboratdir, aslo ijtimoiy tizim emas. Din – xudo yoki xudolar, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, din – Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir. Sovet hukumati tomonidan bu davrda yuritilgan ateistik siyosat, ayniqsa, jamiyat uchun og'riqli bo'ldi. Milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi hisoblangan muqaddas islom diniga qarshi kurash, nafaqat ma'naviyatimizga, balki, o'zligimizga ham qarshi kurash hisoblanar edi. Bu davrda diniy bayramlar ta'qiqlandi, yoshlarni ateistik ruhda tarbiyalash maqsadida katta

targ'ibot ishlari olib borildi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda ma'naviy inqirozning chuqurlashuviga olib keldi. Davlat rahbariga ijtimoiy muhitni mustahkamlash hamda diniy ma'rifatni rivojlantirish borasidagi ishlar haqida axborot berildi

O'zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Konstitutsiyamizda hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlangan. Ming shukrki, yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhiti hukm surmoqda. Barcha din vakillari ibodat amallarini emin-erkin ado etmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillaridan diniy sohaga o'zbek xalqining milliy ma'naviyatining ajralmas qismi sifatida alohida e'tibor qaratildi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda davlat va din munosabatlari quyidagi tamoyillar asosida olib borilmokda: dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish; diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish; diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham hukuqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga y'yl qo'ymaslik; Mustaqillik yillarida dinning huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatida tutadigan o'rni va mavqei aniq belgilanib, bu sohada mustahkam qonunchilik poydevori yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar", degan demokratik tamoyil mustahkamlab qo'yilgan. Fuqarolar millati, irqi va dinidan kat'i nazar, teng huquqli ekanligi belgilanib, ularning vijdon erkinligi, urf-odatlarini, milliy an'analari hurmat qilinishi kafolatlangan. Ushbu konstitutsiyaviy qoida 1998 yil 1 may kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar tyg'risida" gi qonunning 5-moddasida ham o'z ifodasini topgan. Qonunda tarixiy, madaniy, ijtimoiy omillarni hisobga olingan holda davlat va diniy tashkilotlar orasidagi munosabatlar belgilangan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi. Davlat turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e'tiqodlarga mansub diniy, tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi va eksteremizm asosida diniy munosabatlarni keskinlashtirilishiga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi. Muayyan dinga e'tiqod qiluvchilarni boshqasiga kiritishga qaratilgan prozelitizm va missionerlik faoliyati qonunan man etiladi. Islom ma'rifatini keng yoyish va tajriba almashish maqsadida xalqaro aloqalar ham kengaytirilmoqda. Jumladan, bu yil yurtimizda "Islom – ezgulik va tinchlik dini" hamda "Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzularida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, Bag'rikenglik haftaligi o'tkazildi. *Din* ([inglizcha: religion](#)) atamasi ham [Qadimgi fransuz](#) va [anglo-norman tillaridan](#) ([milodiy](#) 1200-yillarda) kelib chiqqan bo'lib, huquq tuyg'usini hurmat qilish, axloqiy majburiyat, muqaddaslik, xudolarga hurmat degan ma'nolarni anglatadi^{[3][4]}.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va dinga to'la erkinlik berildi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslaviye mazhabiga e'tiqod qiladi. Ular bilan bir qatorda katolik, protestant, boshqa mazhab (jami 15 dan ortiq konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash, siyosiyijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritmoqdalar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va dinga to'la erkinlik berildi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslaviye mazhabiga e'tiqod qiladi. Ular bilan bir qatorda katolik, protestant, boshqa mazhab (jami 15 dan ortiq konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash, siyosiyijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritmoqdalar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslaviye mazhabiga e'tiqod qiladi. Ular bilan bir qatorda katolik, protestant, boshqa mazhab (jami 15 dan ortiq konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash, siyosiyijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritmoqdalar. Din dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishi, insonning yashashdan maqsadi kabi savollarga o'zicha javob beradi. Dunyoviy ilm nuqtai nazaridan din kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Bu dunyoqarash jamiyatning ma'lum tarixiy davr va sharoitlaridagi talablari, ehtiyojlari asosida shakllanadi. Ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiy dinga falsafa bilan bir qatorda haqiqatga yetishishning 2 mustaqil usulidan biri sifatida qaragan. Forobiyning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg'ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar. Dinga turlicha yondoshishni Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasida kuzatish mumkin. 18-asr fransuz faylasuflarining dinga bo'lgan o'ziga xos yondashuvlari, 19-asrda mifologik maktab (aka-uka Ya. Grim va V. Grim, M. Myuller), antropologik maktab (L. Feyerbax) va boshqa turli yo'nalishlar paydo bo'lgan bo'lsa, 20-asrda dinni tadqiq qilish yuzasidan yana boshqacha qarash va nazariyalar (K. Yung, E. Dyurkxeym) vujudga keldi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, [milliy qadriyatlarimiz](#), ayniqsa, boy va qadimiy mumtoz adabiyotimizning beqiyos namunalarini o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Vatanimiz tarixini o'qitish va o'rganish birinchi prezidentimiz Islom Karimov so'zlari bilan aytganda, "Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. O'z tarixini bilgan, undan

ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmaz ekan, biz haqqoniy [tariximizni tiklashimiz](#), xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur". Mustaqillik bebaho ne'mat, negaki, aynan shu g'oya atrofida ko'plab jasur ajdodlarimiz o'zining aziz jonini fido qilgan. O'z erki o'z qo'lida bo'lmagan millatning kelajagi mavhumdir. Yurtni istilo qilgan bosqinchilarga xos narsa shundan iboratki, ular tomonidan nafaqat moddiy boyliklar tashib ketiladi va aholisi qullik darajasiga tushiriladi, balki, o'sha aholining tili, dini va madaniyatiga ham tajovuz qilinadi. Jahon sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri sanalgan va dunyoga dong'i ketgan allomalar yurti hisoblangan vatanimiz boshiga ham mana shunday sinovlar tushgan edi. Chingizxon bosqini yurtimiz boshiga haqiqiy musibat yog'dirgandi. Bosqin natijasida yurtimizning gullab yashnagan go'zal vodiylari, shahar-u qishloqlari talon taroj qilindi. Madaniyat va ilm-fan markazlari bosqinchilar oyog'i ostida toptaldi. Misli ko'rilmagan vahshiyliklar amalga oshirildi. Mana shunday og'ir musibatli jarayonlarda yurtimizning asl farzandlari dushmanga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Jaloliddin Manguberdi mana shunday jasur, qo'rqmas, haqiqiy vatanparvar va milliy qahramonlarimizdan biri bo'lgan. Xorazmshohlarning so'nggi sultoni o'z davrida Chingizxondek dahshatli kuchning yengilmasligi to'g'risidagi afsonaga chek qo'ygan edi. Nufuzli mo'g'ul sarkardalari boshliq bosqinchi qo'shinlarga bir necha bor qaqshatqich zarbalar berdi. Natijada, Chingizxonning shaxsan o'zi Jaloliddin Manguberdiga qarshi yurishga majbur bo'ldi. Katta qo'shinga ega bo'lgan va strategik ustunlikni allaqachon qo'lga kiritgan Chingizxon Jaloliddin qo'shinini mag'lub etgandi. Sind daryosi bo'yida bo'lib o'tgan jangda Jaloliddin qo'shinlari garchi Chingizxon qo'shinidan mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, sarkarda boshliq bir necha ming askarlar daryodan kechib o'tishga va dushmanga asir tushmaslikka muvaffaq bo'lgan edi. Bunday jasoratni kutmagan Chingizxon o'z dushmaniga qoyil qolib, uni ta'qib etishni to'xtatgandi. Jaloliddin Manguberdi jasorati tillarda doston bo'ldi, uning kurashlari o'sha davrda mo'g'ul bosqinchilarga qarshi kurashda tushkunlikka uchragan musulmon dunyosining ruhiyatini ko'targan edi. Ammo, dovyurak, haqiqiy vatanparvar hisoblangan Jaloliddin Manguberdiga uzoq yashash nasib etmadi. Kurdlar qo'lga asir tushib, ular tomonidan o'ldirildi. Amir Temur mo'g'ul bosqinchilarni yurtimizdan nafaqat haydab chiqardi, balki, poytaxti Samarqand bo'lgan buyuk imperiyaga asos soldi. Temur va temuriylar davrida yurtimiz gullab yashnadi, uning poytaxti hisoblangan Samarqand sharqning eng rivojlangan shaharlari darajasiga ko'tarildi. Bu davrda bunyodkorlik, ilm-fan, madaniyat va san'at gullab yashnadi, hozirgacha qad ko'tarib turgan ulug'vor obidalar barpo etildi. Bunday bunyodkorlik ishlari orqali yurtimizning ilm- ma'rifat, madaniyat borasidagi salohiyati namoyon bo'ldi. Ammo, XIX asrning oxirida yurtimiz yana bir bosqinga duchor bo'ldi. Bu safar Rossiya imperiyasi yurtimiz hududida hukm surgan xonliklarning tarqoqligi, iqtisodiy va harbiy jihatdan ortda qolganligidan foydalanib, ularni birin-ketin istilo qila boshladi.

Bosqin davomida ko'plab shaharlar vayron qilindi, minglab vatan himoyachilari ayovsiz janglarda yurt ozodligi uchun jon berdi. Mustamlakachilar tomonidan yurtimizning talon taroj qilinishi, boyliklarining tashib ketilishiga yurtdoshlarimiz jim qarab turmadi, albatta. Natijada, bosqinchilarga qarshi, yurt ozodligi uchun ko'plab qo'zg'olonlar ko'tarildi. Toshkentdagi "Vabo isyoni", Dukchi Eshon qo'zg'oloni, 1916 yilda yuz bergan Jizzax qo'zg'oloni shunday isyonlardan hisoblanar edi. Mazkur qo'zg'olonlar istilochilar tomonidan shafqatsizlarcha bostirilib, ularning boshliqlari va qatnashchilari ayovsiz jazolangan bo'lsa-da, bunday harakatlar milliy ozodlik harakatlari tarixiga zarhal harflar bilan bitildi. Sovet hokimiyati davrida ham xalqimiz boshiga misli ko'rilmagan musibatlar yog'dirildi. Avvalo, istilo qilingan Turkistonning birligiga barham berish maqsadida, bolsheviklar tomonidan milliy hududiy chegaralash o'tkazildi va xalqlar bir biridan ajratib yuborildi. Turkiston muxtoriyati qonga botirildi. O'z davrida sovet hukumati tomonidan "bosmachilik harakati", amalda esa esa istiqloqlilik harakati bolsheviklar tomonidan ayovsiz bostirildi. Ularning boshliqlari sovet hukumati tomonidan turli hiyla-nayranglar bilan qo'lga tushirildi, yoki chetga chiqib ketdilar. Bundan tashqari, mamlakat bo'ylab amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati amalda jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi o'ringa ega bo'lgan xususiy mulkchilikka barham berdi. Natijada ko'plab boy va o'ziga to'q dehqonlar xonavayron bo'ldi, bunday siyosatga qarshi chiqqanlar esa qatag'on qilindi yoki qattiq jazolandi. Sovet hukumati tomonidan bu davrda yuritilgan ateistik siyosat, ayniqsa, jamiyat uchun og'riqli bo'ldi. Milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi hisoblangan muqaddas islom diniga qarshi kurash, nafaqat ma'naviyatimizga, balki, o'zligimizga ham qarshi kurash hisoblanar edi. Bu davrda diniy bayramlar ta'qiqlandi, yoshlarni ateistik ruhda tarbiyalash maqsadida katta targ'ibot ishlari olib borildi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda ma'naviy inqirozning chuqurlashuviga olib keldi. Istiqloq yuqoridagi salbiy holatlarga barham berdi. Xususan, xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ldi, davlatchiligimiz qayta tiklandi, milliy urf odatlarimiz, diniy qadriyatlarimizga bo'lgan cheklovlar olib tashlandi, shuningdek, tariximizni xolisona yoritish, buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish ishlari yo'lga qo'yildi. Eski tuzum davrida qoralangan vatanparvarlarimizning nomlari oqlandi va ularning xizmatlariga munosib baho berildi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, yurt mustaqilligining boy berilishi xalq boshiga mislsiz kulfatlar yog'dirishi, uning asl farzandlaridan judo qilinishi, boyliklarining ayovsiz talanishiga olib kelishi muqarrar. Mustaqillik bebaho ne'mat bo'lib, mamlakatning rivojlanishi va taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababdan ham, mustaqillikni asrab avaylash va uni mustahkamlash har bir yurtdoshimizning muqaddas burchidir. Buning uchun yoshlarimiz tarixni yaxshi bilmog'i va undan o'ziga kerakli xulosa chiqarmog'i lozim. Zero mustaqillik – bebaho ne'mat ekanligiga tarix shohiddir.

Xulosa

Bir so'z bilan xulosa qilib aytganda Mustaqillik bebaho ne'mat bo'lib, mamlakatning rivojlanishi va taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababdan ham, mustaqillikni asrab avaylash va uni mustahkamlash har bir yurtdoshimizning muqaddas burchidir. Buning uchun yoshlarimiz tarixni yaxshi bilmog'i va undan o'ziga kerakli xulosa chiqarmog'i lozim. Zero mustaqillik – bebaho ne'mat ekanligiga tarix shohiddir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi. Toshkent, O'zbekiston, 2017.-48 b.
2. [Muhammad al-Buxoriyning “Sahih”](#) hadislar to'plami.
3. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016.-56 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intozom va shaxsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent, O'zbekiston, 2017.-104 b.